

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA YOSH AVLODNI TARBIYALASHGA QARATILGAN G'OYALARLARNING ZAMONAVIY TA'LIM TARBIYANI TASHKIL ETISHDAGI ROLI VA AHAMIYATI

*Nizomiy nomidagi TDPU
Porfessional ta'lif fakulteti
“Texnologik mashinalar va jihozlar “ yo 'nalishi
3-bosqich 302-guruh talabasi
Nosirov Sayfiddin Salohiddin o'g'li*

Annotatsiya: Bugungi rivojlanib borayotgan mamlakatimizda Abdulla Avloniy asarlaridagi yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan g'oyalar dolzarb masala hisoblanmoqda.. Ta'lif jarayonida zamонавиy та'lif tarbiyani tashkil etish haqida fikr yuritildi. Shu g'oyalar asosida yosh avlodni kamolga yetkazish va muhim o'rinn tutishining ahamiyati yoritildi.

Kalit so'zlar: ta'lif, tarbiya, pedagogika, axloq, maktab.

O'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan, o'zbek madaniyati va ma'rifatini rivojlantirishda katta xizmatlar ko'rsatga buyuk mutafakkir olim, shoir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan. Eski maktabda savod chiqardi, madrasada tahsil oldi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan odamlar eshidiga mehnat qildi, g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug'ullandi, «Imoratchi usta» degan nom oladi.

U Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, xandas, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'lifni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lif tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirshiga alohida e'tibor berdi. Uning «Birinchi muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Gulistoni maktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909-1916, 6 qism) kabi qo'llanmalari maktablarda o'qitilgan.

Avloniy madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullar ekan o'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi uslubdagi maktab tashkil etdi va yangi o'quv tizimiga asos soldi, yosh pedagog-o'quvchilarga zamонавиy bilimlar berish, maktabda bolalarga sharq va g'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lif tarbiyaviy ishlarni amalga oshirdi va Turkistondagi ta'lif tizimi yangi bosqichga ko'tariladi.

Maktab tarbiyasini tashkil etishda A.Avloniy avvalom bor axloqiy tarbiya, xulq, jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, iqtisodiy tarbiya kabi har

tomonlama komil insonni shakllanishi zarur bo‘lgan tarbiya turlarining mohiyatini yoritib bergen.

U o‘z asarlarida “axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odad qilsa, yaxshilikg‘a tavsif bo‘lub, «yaxshi xulq» agar tarbiyasiz o‘sub, yomon ishlaydurgan bo‘lub ketsa, yomonliqg‘a tavsif bo‘lub «yomon xulq» deb atalur” deb yozadi. Inson tug‘ilib kamolga yetishiga unda shakllangan xarakter unga berilgan tarbiya natijasi ekanligi deb ta’rif berilgan.

“Tarbiya” ni o‘zini A.Avloniyo alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan fan sifatida qaraydi. Bu borada qo‘yidagilarni keltirish mumkin: “Tarbiya – «Pedagogiya», ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o‘ldug‘indan shul xususda bir oz so‘z so‘ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘surdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur. Zeroki, «Hassinu axloqiko‘m» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg‘a amr o‘linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasи tarbiyadur.

Tarbiya jarayonini tashkil etish bosqichlarini sanab o‘tar ekan A.Avloniyi uni kimlar tomonidan amalga oshirilishi lozim ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, «birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinci, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur»

Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur, - deb asosiy muhim jabhalar e’tiborga olingan. Jamiyatni har tomonlama rivojlanishi aynan tarbiya bog‘liq ekanligini e’tirof etilmoqda.

Shuningdek A..Avloniy badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog‘ badanga ega bo‘lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila terisi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo‘yib astarini yuvub ovora bo‘lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog‘lom bir vujud kerakdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo‘lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib yoki do‘xturga boqizmak kerak.

Aqliy tarbiya borasida A.Avloniyo - fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratli bo‘lishiga

sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan oyilmaydurgan, birining vujudi birig boylangan jon ila tan kabidur.

Fatonat aql egasi bo‘luv demakdir. Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidur. Inson aqli ila din va e’tiqodini mahkam qilur, shariat hukmlariga bo‘yunsunar. Aqlsiz jinni kishilar bularga bo‘yun qo‘ymas, shariatdan tashqari ishlarni ham qilur. Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidur. Ilm o‘rganmak, olim bo‘lmak uchun maktabga kirmak, muallimdan ta’lim olmak lozim. Aqlsiz kishilar na maktabga kirar va na muallimni bilar.

Estetik tarbiya borasida A.Avloniy alohida e’tiborni quyidagilarga qaratish zarur deydi, - nazofat deb a’zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytيلur. Poklik zehn va idrokingni keng va o‘tkur qilur. Pok bo‘lmak salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadur. Pok bo‘lмаган kishi Allah ham xalq qoshida sevimsizdur. Yirtiq, eski kiyimlar kiymak ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilub, yog‘ini chiqarub yurmak zo‘r ayb va gunohdur. Ifloslik balosidan poklik davosi ila qutulmoq kerak. Baliqning hayoti suv ila o‘ldig‘i kabi, insonning salomatligi havo iladur. Agar tan pok bo‘lub yuvilib turmasa, qulqoq kir bo‘lsa, eshitmagani kabi badan ham o‘ziga kerak bo‘lgan havoni ichiga ololmas, ichidagi rutubat ham kirdan o‘tub chiqub ketolmas, chunki badan elak kabi ko‘zlikdur. Agar ko‘zi kir olsa, un turub suv ham o‘tmas, shuning uchun tamiz bo‘lмаган kishilar qo‘rqinch kasallarga tezgina giriftor bo‘lurlar.

Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o‘z kamchiliklarini o‘lchab bilmak ila barobar boshqalarning ham af’ol va harakotini sezur. Agar ishlagan ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo‘lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur. Vijdon yaxshi xulqlarning manbayi o‘ldig‘indan vijdon sohiblari har bir ishni beg‘araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo‘lur. Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida niyat va amallarida, do‘sit va oshnoliqlarida yashirin bir g‘arazlari o‘ldig‘indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobig‘a giriftor bo‘lurlar.

A.Avloniy vatanparvarlik borasida alohida to‘htalib o‘tgan. Har bir kishining tug‘ulub o‘skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo‘lub, har vaqt dilining bir go‘ shasida o‘z vatanining muhabbati turar.

Yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy ta’lim tarbiyani tashkil etishda A.Avloniy g‘oyalariga asoslanilsa aynan yosh avlodni kamolga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. <https://ziyouz.uz/>
2. <https://sputniknews.uz/>
3. <https://arboblar.uz/>